



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



31 YANVAR
№24

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
7-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-7**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-7**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 24-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 34 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ
ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР**

1. Ruzmetova Sevara Sulaymanovna, Ablayeva Nadira Qadamjonovna	
“PISA” XALQARO TADQIQODLARNING TOPSHIRIQLARINI O’ZBEK TILI FANI DARSALARIDA SAMARALI QO’LLASH	7
2. Омонов Бахтиёржон Хабитович	
ГЕОЛОГИЯ ТЕРМИНОЛОГИЯСИННИГ ДОЛЗАРБЛИГИ.....	11
3. Asqarova Muqaddasxon Shavkatovna	
ONA TILI TA’LIMIDA O’QUVCHILARNI TIL HODISALARINI AJRATISHGA O’RGATISH	13
4. Ataxanova Gulnar Orinbaevna	
INGLIZ TILI DARSALARIDA INNOVATION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI.....	15
5. Latipova Sadokat Bakhtiyorovna, Elmurodova Yulduz Sheralevna	
THE APHORISM AND THE APHORISTIC STYLE OF COMMUNICATION.....	17
6. Fotima Uktamovna Abduvakhabova	
THE ROLE OF CULTURE IN TEACHING LANGUAGE	19
7. Xaldarova Xanifa Abduraimovna	
O’ZBEK TILI DARSALARIDA BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSIDAN FOYDALANISH	21
8. Атаканова Гулнор Орынбаевна	
ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА АКТДАН ФОЙДАЛАНИШ	22
9. Bobokulova Maftuna Gayratovna	
ADABIYOT DARSALARIDA O’QUVCHILANI IJODIY FIKRLASHGA O’RGATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLAR.....	24
10. Narziyeva Sarvinoz Jamshid qizi	
BOSHLANG’ICH SINF O’QISH DARSALARIDA O’QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O’RGATISH YO’LLARI	25
11. Qo’shinova Muyassar Umarboyevna	
SO’Z MA’NOLARING KO’CHISH USULLARI	27
12. Умарова Обидахон	
“ҲАРАКАТ” КОНЦЕПТИНИНГ АСОСИЙ КОМПОНЕНТЛАРИ	28
13. Умарова Обидахон	
РУС, ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА “ҲАРАКАТ” КОНЦЕПТИНИНГ УНИВЕРСАЛ ВА ИДЕОЭТНИК ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ	30
14. Раҳматуллаева Ирода Анваровна	
РАЗВИТИЕ БИЛИНГВИЗМА УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ МЕЖПРЕДМЕТНОЙ СВЯЗИ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ	32



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

“PISA” XALQARO TADQIQODLARNING TOPSHIRIQLARINI O‘ZBEK TILI FANI DARSLARIDA SAMARALI QO‘LLASH

Ruzmetova Sevara Sulaymanovna

Xorazm viloyati Urganch shahri 3-son
maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Telefon: +998(93)7556633
bekchanovmurodbek85@gmail.com

Ablayeva Nadira Qadamjonovna

Xorazm viloyati Urganch shahri 3-son
maktabining o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Telefon: +998(90)7381092
ablaeva7773@gmail.com

Annotatsiya: maqola rus maktablarida tahlil oluvchi o‘quvchilarning o‘zbek tili fani darslarida “Pisa” topshiriqlarini samarali qo‘llanilishi xususida. Shuningdek, muallif ushbu maqola orqali o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berish bilan birga , “Pisa” topshiriqlari asosida o‘quvchining fikrlash qobiliyatini kengaytirish va yangi ma’lumotlarni hosil qila olish kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: information texnologiya, raqobatbardosh qadrlar, qidiruv tizimi, onlayn ensiklopediya, diagramma, bazaviy bilim.

Bugun har bir fan o‘qituvchisi xalqaro baholash tizimi haqida ma’lumotga ega bo‘lishi va o‘quvchilarni ”Pisa” va ”Pearls” baholash imtihonlariga tayyorlashi muhim vazifa. Pisa nima? Turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo‘llanilgan. Bu dastur bo‘yicha har uch yilda o‘quvchilarning bilimini baholash maqsadida sinovlar o‘tkaziladi. Hozirgi kungacha jami 7 marta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015 va 2018 yillar) Pisa dasturi bo‘yicha testlar o‘tkazilgan bo‘lib, keyingi sinovlarda mamlakatimiz ham bu dasturga qo‘shilishiga tayyorgarlik ko‘rmoqda.

Pisa dasturining maqsadi nima, u qanday zaruriyat tufayli paydo bo‘ldi va Pisa savollari qanday prinsipga asoslangan holda tuziladi?

Bu dasturda qatnashishdan maqsad testlarni o‘tkazish yoki o‘quvchilarni tayyorlash emas, o‘quvchilarimizda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlarni yaratish uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi. XXI asr – informatsion texnologiyalar asri. Bu asr o‘z mutaxassislaridan umuman oldingidan farq qiluvchi kompetensiyalarni talab qiladi. O‘tgan asrlarda kuchli xotira, ensiklopedik bilim, o‘z sohasida iloji boricha ko‘proq ma’lumotni bilgan mutaxassislar yuqori qadrlangan bo‘lsa, endi bu bilimlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lmay qoldi. Qidiruv tizimlari, onlayn ensiklopediyalar , sohalar bo‘yicha mukammal onlayn ma’lumotlar bazalari yaratildiki, endi bu ma’lumotlarni eslab qolish zaruriyati ikkinchi planga tushib qoldi.

Hozirgi zamon mutaxassisida bu bilimlarni tahlil qilish , ulardan yangi ma’lumotlarni hosil qila olish kompetensiyasi birinchi o‘ringa ko‘tarilyapti. Pisa testlari xuddi shu o‘zgarishlarni ta’lim tizimida aks ettrish , maktab o‘quvchilarning haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarini tahlil qilish , ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qay darajada egallayotganini , ta’lim tizimining bu o‘zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.



Pisa testlarida asosiy e'tibor o'quvchilarning mazkur yo'nalishlar bo'yicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim va ko'nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi.

Pisa sinovlarida to'rt xil sinov usulidan foydalaniladi:

- A. Bir javobli testlar
- B. Bir necha javobli testlar
- C. Qisqa yoki batafsil yoziladigan savollar

D. Biror muammoning yechimi bo'yicha o'quvchi fikri (odatda bunday savollarda tekshiruvchida umumiy javoblar bo'ladi, o'quvchi javobi test tuzuvchi javobiga aynan mos kelishi talab qilinmaydi, o'quvchi ijodkorligi qo'llab quvvatlanadi)

O'zbek tili darslarida Pisa testlaridan o'qish savodxonligi usulini keng qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu yerda, o'qish savodxonligi tushunchasi keng ma'no kasb etadi. Bu yo'nalish maqsadi o'quvchining berilgan badiiy asarlardan parcha, biografiya, xat, hujjat, gazeta va jurnallardan olingan maqolalar, turli qo'llanmalar, geografik kartalar kabi rangba-rang tematikadagi, tarkibida matnni ochib berishga mo'ljallangan diagrammalar, rasmlar, kartalar va jadvallar berilgan matnni tushinishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, matn mazmuniga baho berish va o'qiganlari haqida o'z fikrini bera olishi kabi kompetensiyalarini aniqlash hisoblanadi.

O'QISH SAVODXONLIGI (9- sınıf O'zbek tili . Test namunasi) TO'MARIS

Cho'l bahor kelinchagi oyog'i ostiga chechaklar bilan bezalgan yashil poyandozini yoyib tashlagan. To'rg'aylar havoda pirillab ko'klamga madhiya o'qimoqda. Rango-rang kapalaklar chechaklarning xushbo'y hididan mast.

Orol dengizining janubidagi shu bepoyon cho'llarning sohibi bo'lgan ko'chmanchi massagetlar kelin kutmoqda. Ularning qarorgohi bayram tusini olgan. Qabila boshlig'i To'maris o'g'li Sparangizni shak urug'idan Zarina degan bir qizga uylantirmoqda. Massagetlar kelinni olib keladigan mehmonlarni kutib olish taraddudida. Yoshlar mehmonlarga joy hozirlamoqda, ayollar ovqat pishirmoqda, yangalar o'tov xizmatini o'taydigan uzun soyabon aravalarni bezatmoqda...

O'g'li bilan keliniga qarab To'marisning sevinchi ichiga sig'mas edi. Biroq oyning o'n beshi yorug' bo'lsa, o'n beshi qorong'i, deb bekorga aytmaganlar. Baxt osmonida bir parcha bulut paydo bo'lib, cho'l malikasining yuragini g'ash qila boshladи. Mamlakat chegarasidan kelgan choparlar uning huzuriga Eron shohining elchisi kelayotganidan darak bergen edilar. Kayxisravning elchisi o'z mulozimlari bilan ikki kun yo'l yurgandan keyin To'maris huzuriga yetib keldi. Yoshi qirqlarga borib qolgan, chiroylikkina bir ayol aravaning orqasidagi pardani ko'tardi-da, belidagi oltin kamarga taqilgan qilichini avaylab ushlagan holda palos ustiga sakrab tushdi. Bu ayol massagetlar malikasi To'maris edi. Yarqiroq mis bolta ushlagan ikki qiz uning ikki yoniga kelib turdi. Elchi To'marisni ko'rgach, ikki qo'lini yerga qo'yib, yer o'pdii-yu, o'rnidan turib ta'zim qildi.

U tumtaroqli so'zlar bilan To'marisni qutlug'lar ekan, mulozimlari tillado'z chophon va harir ko'ylaklar tugilgan zarbof bo'g'chani malika oyog'i ostiga qo'ydilar. To'maris sovg'alar uchun minnatdorchilik bildirib, Eron shohining sog'ligini so'radi va elchining yo'lda qanday kelganini surishtirdi, so'ngra sholcha ustiga tashlangan yo'lbars terisiga o'tirishni taklif qildi.

Kayxisrav elchisini yuborayotganda unga: «Agar To'marisni xotin qilib olsam, uning fuqarosi o'z-o'zidan menga qaram bo'lib qoladi, urushib o'tirishga hojat qolmaydi. Sening vazifang mening shu rejamni ro'yobga chiqarishga yordam berishdan iboratdir, tushundingmi?» — degan edi.

Elchi hozir o'z podshohining topshirig'ini bajarish uchun butun ayyorligini ishga solar, tilyog'lamalik qilardi. Har xil tumtaroqli gaplardan keyin o'z maqsadini ochiq bayon etdi: — Men yolg'iz elchi emas, sovchi ham bo'lib keldim. Shahanshohi olam senga g'oyibona oshiq bo'lganlar.

To'maris qoshlarini chimirib, o'yga toldi. Agar u shohning sovg'alarini va taklifini qabul qilsa, xalqining boshiga qanday kunlar kelishini ko'z oldiga keltirib, dahshatga tushdi.

— Shahanshoh menga emas, mening yurtimga, boyligimga oshiq bo'lgandir,— dedi To'maris zaharxanda qilib. Men emas, shu serbaraka yurtim unga kerak bo'lib qolgan. Siz, elchi janoblari, o'z tojdoringizga borib aytинг: men uning taklifini qat'iy rad etaman. Men unga qalliq bo'lishni, o'z elimni unga qul qilib topshirishni istamayman.



To'marisdan rad javobini olgan Kayxisrav, Sparangizni ayyorlik qilib, asirga oladi. Bunga chiday olmagan Sparangiz, qul bo'lib yashagandan, tik turib o'lishni o'ziga lozim topadi.

Sparangiz va uning safdoshlari halok bo'lganligi to'g'risidagi xabar To'marisning va barcha massagetlarning yuraklarini o'qdek teshib o'tadi.

To'maris tish-tirnog'igacha qurollangan va hali charchamagan Eron qo'shini bilan hozir jang qilsa, oqibati xunuk bo'lishini yaxshi bilardi. Eng oldin dushmanni cho'llarda sarson qilib, uning tinkasini quritish, qulay vaqt va joy topib turib, jang qilish kerak edi. Ko'pni ko'rgan chol qayergacha chekinish va dushman bilan qaysi joyda jang qilish kerakligini batafsil gapirib berdi. Kengashdagilar uning rejasini ma'qullab, ba'zi tuzatishlar kiritdilar. Ayovsiz jangdan keyin, eroniylarni tor-mor keltirgan To'maris, jangda halok bo'lgan Kayxisravning kallasini kesib olib kelinglar!— deb buyurdi.

Ko'p o'tmay, Zarina Kayxisravning jasadini topdi va uning kallasini kesib olib, To'marisga keltirib berdi.

— Endi bir meshga qon to'ldirib kelinglar!

Jangchilar darhol malikaning buyrug'ini bajo keltirdilar.

To'maris soch va soqoliga qon yopishib qotib qolgan, ko'zları yumuq, dahshatli kallani qo'liga olib, unga qaradi-da:

— Ey Kayxisrav, umr bo'yisi jang qilib odam qoniga to'ymading, mana endi to'yguningcha ich! — deb uni mesh ichiga soldi-da, mesh og'zini chilvir bilan mahkam bog'lab qo'ydi.

Mavzu bo'yicha topshiriqlar

1. Matn nimaning tasviri bilan boshlangan?

A. Kapalaklar tasviri

S. Bahor tasviri

B. To'rg'aylar tasviri

D. Kelin kutish tasviri

2. Massagetlarning yurti qayerda joylashgan?

A. Orol dengizining janubida

S. Amudaryo bo'yida

B. Orol dengizining sharqiy qismida

D. Amudaryoning janubida

3. Kimning to'yi bo'lmoqda?

A. Sparangiz va Zarinaning

B. To'maris va Kayxisravning

S. A va Sjavoblar to'g'ri

D. Massaget va shak qabilalari quda bo'lishmoqda

4. "Oyning o'n beshi yorug' bo'lsa, o'n beshi qorongu" degan iborani qanday tushunasiz?

Fikringizni

3-4 jumla bilan yozma bayon qiling. _____

5. Rasmlar va matn yordamida To'marisning tashqi qiyofasi va ichki dunyosini tasvirla ng. _____

6. Elchi qanday niyatda kelgan edi?

A. Ochiq ko'ngil bilan

B. Sovchilikka

S. Mehmon bo'lib

D. Do'stlik rishtalarini bog'lash uchun

7. Matndan Kayxisrav elchisiga aytgan gaplarni topib, daftaringizga ko'chiring. _____

8. To'maris nima uchun dahshatga tushdi? Fikringizni 3-4 jumla bilan yozma bayon qiling. _____

9. To'marisning sovchiga bergan javobini matndan toping va daftaringizga yozing. _____

10. To'maris Kayxisravga rad javobini berib, to'g'ri qildimi? Sizning bunga munosabatingiz qanday?

Ha, chunki _____

Yo'q, chunki _____

11. Nima uchun Sparangiz o'zining joniga qasd qildi? Uni to'g'ri yo'l tutdi deb o'ylaysizmi? Fikringizga 2ta isbot keltiring. _____



12. “*Qul bo‘lib yashagandan, tik turib o‘lgan yaxshi” degan iborani qanday tushunasiz?* _____

13. *Siz To‘marisning o‘rnida bo‘lib qolsangiz, qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz? Nima uchun?* _____

Foydalanimanligan adabiyotlar ro‘yxati:

1. www.uzedu.uz Iqtisod f.d. U. Sharifxodjayev. Pisa Tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi. Toshkent -2020.
2. www.gazeta.uz education
3. fayllar.org Pisa xalqaro dasturining o‘qish savodxonligi yo‘nalishida ijodiy topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishslash texnologiyasi.



ГЕОЛОГИЯ ТЕРМИНОЛОГИЯСИННИГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Омонов Бахтиёржон Хабитович,
ЎзДЖТУ 2-курс таянч докторанти
Телефон: +998974188586
e-mail: Baxtiyor008@gmail.com

Аннотация: Геологияга оид терминларнинг шаклланиши, ривожи ва тараққиёт босқичлари соҳа терминшунослигининг такомиллашувида муҳим омиллардан биридир. Давр илмий-техника тараққиёти, иқтисодий-сиёсий ва лисоний омиллар когнитив лингвистиканинг таржимашунослик аспектида инглиз ва ўзбек тиллари таржима назариясига асосланиб, соҳага оид терминлар таркибини муҳим ва долзарб масалалардан бири сифатида тадқиқ қилишни тақозо этмоқда.

Калит сўзлар: Геология, термин, терминология, тушунча, лексик бирлик.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев 2020 йил 31 январ қуни пойтахтнинг Мирзо Улуғбек тумани Олимлар қўчасидаги тадқиқот институтларига ташриф буюрди. Ушбу ҳудудда илм-fanning турли йўналишларида бир нечта илмий-тадқиқот институтлари мавжуд. 2020 йил мамлакатимизда фан, таълим ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили деб эълон қилинди. Давлатимиз раҳбари Олий Мажлисга Мурожаатномасида ушбу мақсадларга тўхталар екан, ҳар йили илм-фанинг бир неча устувор йўналишларини ривожлантириш зарурлигини таъкидлади. Бу йил математика, кимё ва биология, геология бўйича фундаментал ва амалий тадқиқотлар кучайтирилди, олимлар учун барча шароитлар аниқланди. Ҳозирги қунда ер қаърини геологик ўрганиш бўйича илмий-тадқиқот ишларини Давлат геология ва Минерал ресурслар қўмитаси тизимидағи 4 та ташкилот - Геология ва геофизика институти, Гидрогеология ва муҳандислик геологияси институти, Минерал ресурслар институти, нефт ва газ конларини геология ва қидириш институти. Давлатимиз раҳбарининг ташабbusи билан ушбу институтлар базасида яхлит комплекс - Замонавий геология фанлари университетини яратиш режалаштирилган. 31-январ қуни Президент Шавкат Мирзиёев ушбу янги университет кампусига тамал тоши қўйди.

Хабарингиз бор, ўтган йили 27 августда Президент Шавкат Мирзиёев геология соҳасида амалга оширилаётган ишлар самарадорлиги ошириш мақсадида Давгеолқўм раисига геология-қидириув ишларини 2 баробар кенгайтириш, Наманган тажрибаси асосида ҳар бир ҳудудда доимий геологик экспедициялар ташкил этиш бўйича топшириқлар берган эди. Давлат раҳбари 2021 йили геология-қидириув ишларини 2 баробар кенгайтириб, янги истиқболли майдонларни аниқлаш, соҳага замонавий лаборатория техникаларини жорий қилишни жадаллаштириш муҳимлигини таъкидлаган¹.

Ушбу олиб борилаётган ишлар ижтимоий – иқтисодий, маданий – маърифий соҳалардаги ислоҳотлар ўзбек тилининг ушбу соҳа терминшунослигини ривожлантиришни тақозо этади. Ҳусусан, геологияга оид терминларнинг шаклланиши, ривожи ва тараққиёт босқичлари соҳа терминшунослигининг такомиллашувида муҳим омиллардан биридир. Давр илмий-техника тараққиёти, иқтисодий-сиёсий ва лисоний омиллар когнитив лингвистиканинг таржимашунослик аспектида инглиз ва ўзбек тиллари таржима назариясига асосланиб, соҳага оид терминлар таркибини муҳим ва долзарб масалалардан бири сифатида тадқиқ қилишни тақозо этмоқда.

Бу албатта ўз-ўзидан бошқа соҳа вакилларига, ҳусусан биз тилшунослик билан шуғулланувчи йўналишдаги тадқиқотчиларга ҳам касб-корга оид терминларни қиёсий тадқиқ этиш лозимлигини билдиради.

Жумладан, тадқиқот мавзусининг долзарблиги шундаки, ҳозирги замон тилшунослигининг геологик соҳадаги сўзларни номлаш масалаларига бўлган қизиқишимизни орттиради. Айниқса, геологик терминологиянинг лексик таркиби қандай, бу соҳага оид сўзлар қайси тил оиласига мансуб – буларнинг барчаси тилшунослигимизда муҳим аҳамият касб этади.

Асосийси эса инглиз ва ўзбек тилларидаги геологик терминологиянинг қиёсий

¹ <https://daryo.uz/k/2020/08/27/ozbekistonda-geologiya-qidiruv-ishlari-2021-yilda-2-barobar-kengaytiriladi/>



аспектдаги тадқиқи масаласи тилшунослар томонидан маҳсус тадқиқот обьекти сифатида ҳали ўрганилмаган. Бу эса тил гурухидаги касб-корга оид, геология терминологиясининг ўзига хос структураси ва семантик хусусиятлари, уларнинг тузилиши, шаклланиши ва ривожланиши, замонга хос ўзгариши ва бошқа жиҳатларини тадқиқ этиш долзарблигини кўрсатади.

Масалан, геологияга оид “бурғулаш” атамаси инглиз тилида қанча феъл ва маънени қамраб оладиу ўзбек тилида қанча маъно касб этади. Булар албатта тилнинг, сўзнинг семантик хусусиятидан ташқари этимологик жиҳатлари ҳам борлигидан далолат беради.

Тадқиқотимизнинг долзарблиги шундаки, дейлик оддий нефтьни ифодалайдиган “нафт” сўзи ўзбекча экани, ундан “нефть” – қазилма бойлиги, “нафтандоз” – нефть отувчи қурол (қалъаларни эгаллаш учун ясалган ўт отувчи палахмон), “нафталин” – дори-дармон (замонавий тиббиётда ишлатилади) каби бир қанча сўзлар ясалгани ва ўзбек тилининг накадар бой тил эканини ва бу соҳада ҳали кўп тадқиқ ўтказишимиз лозимлигини ифодалаш, албатта буларни илмий доирага олиб чиқишимиз ва бу каби терминларни назарий-амалий жиҳатдан истеъмолга киритишимиз зарурлиги ойдинлашмоқда.

Бунда албатта тоғ-кон ишларида айрим қазилма рудаларнинг маҳаллий ва халқаро номланишини таҳлил этиш ва олинган маълумотларни қайта ишлаш ва баҳолаш, семантик гурухга ажратиш, статистик тадқиқ этиш ҳамда шарҳлаш лозим бўлади.

Геология терминологияси ўз соҳасидан келиб чиқиб МДХ давлатлари, хусусан Россия тадқиқотчи олимлари томонидан тадқиқ этилган ишлар салмоқли қисмни ташкил этади. Бироқ ўзбек тадқиқотчилари томонидан геология терминологияси инглиз ва ўзбек тилларини қиёсий жиҳатдан олиб муайян аспектда тадқиқ этиши ҳали кузатилмади.

Ваҳоланки, геология соҳасига ҳукумаат миқёсида эътибор қаратилаётгани, ўтган йил бошидан буён 150 та янги кон давлат балансига олингани, олтин, кумуш, уран, мис, молибден ресурлари ва захиралари кўпайгани, хусусан, Бухоро ва Навоий вилоятларидаги Кулжуктов ҳамда Ауминзотов тоғлари худудида 3 та олтин, Самарқанд вилояти Қаттақўрғон тумани ҳамда Жиззах вилояти Арнасой туманида 2 та уран кони аниqlangани, шунингдек, 32 та геология-кон захираси халқаро JORC стандартларига ўтказилгани тадқиқотимиз обьектини нақадар жиддий илмий кўлами мавжудлигини билдиради.¹

Шунингдек соҳага оид лугат ёзиш масаласи ҳам илмий терминологияни ривожлантиришнинг асосий воситаларидан биридир. Давлат геология ва минерал ресурслар қўмитаси раисининг ҳисоботига кўра 20 та янги конга онлайн аукционда, очиқ ва шаффофф тарзда салоҳиятли хорижий инвесторларни жалб этиш масаласи ҳам кўриб чиқилган. Бу эса илмий ишимиз обьекти мамлакатимиз тараққиётида ўзига хос ўрни борлигини билдиради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. – Т., 2008. 608 б.
2. Большой энциклопедический словарь «Языкоznание»/Гл. ред. В.Н. Ярцевой. - 2-е изд. - М.: Большая Российская Энциклопедия, 2000. –С. 508.
3. <https://daryo.uz/k/2020/08/27/ozbekistonda-geologiya-qidiruv-ishlari-2021-yilda-2-barobar-kengaytiriladi/>
4. <https://kun.uz/news/2020/08/27/ozbekistonda-yil-boshidan-buyon-nechta-oltin-va-uran-koni-aniqlangani-malum-boldi>

¹ <https://kun.uz/news/2020/08/27/ozbekistonda-yil-boshidan-buyon-nechta-oltin-va-uran-koni-aniqlangani-malum-boldi>



ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNI TIL HODISALARINI AJRATISHGA O'RGAТИSH

Asqarova Muqaddasxon Shavkatovna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani
12-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Telefon: +998999850094

Annotatsiya: Bu maqolada til hodisalarini ajratishga o'rnatish tamoyili har bir mavzu, har bir bo'limni o'tish paytida amalga oshirish kerakligi aytib o'tilgan.o'qituvchilar o'quvchilarning tog'ri talaffuziga katta e'tibor berishlari kerakligi, so'zlarni to'g'ri yozishlarini muntazam kuzatib borishlari takidlangan.

Kalit so'zlar: Fonetik, leksik, grammatik, orfoepiya, orfografiya, punktuatsion, stilistika, analistik-sintetik.

Maktabda ona tili o'qitishning asosiy maqsadi keng ma'noda savodli kishilar etishtirish, o'quvchilarni ishlab chiqarish hamda ijtimoiy hayotdagi faol va ijodiy faoliyatlar uchun zarur bo'lган darajada og'zaki va yozma nutqdan foydalanish malakalari bilan qurollantirishdan iboratdir. Demak, o'quvchilarning nutq malakalarini mustahkamlash va til sezgirligini takomillashtirishga erishish maktabda ona tili o'qitishning maqsadlaridan kelib chiqadi. O'quvchilarni ona tilining qonun-qoidalari bilan qurollantirish, ularni til materiallari bilan ishslashga o'rnatish nutq o'stirishga xizmat qilmog'i lozim.

«Ona tilini o'qitishning asosiy vazifalaridan biri, - deb qayd qiladi K.D.Ushinskiy, - o'quvchilarda ...so'z chechanligini taraqqiy ettirishdan iborat». «Xalq tili, - deb yozadi u, - bolaning tabiatida shunday bir qobiliyatni o'stiradi, bu qobiliyat kishida nutq yaratadi». Nutq o'stirish, nutq maqsadiga mos so'z tanlash maktabda ona tili o'qitishning asosiy vazifalaridan birdir. Nutq maqsadiga muvofiq so'z tanlay olish, ularni grammatik jihatdan uyg'unlashtirib, nutq tuza bilish so'zlovchining qobiliyatini ham ko'rsatadi. Kishi o'zi ishlatadigan so'zlarning ma'nosini tushunsa, uni to'g'ri tanlaydi; so'zni to'g'ri tanlay olsa, nutq maqsadiga mos gaplar tuza oladi.

Ma'lumki, o'quvchi maktabga kelguncha tilning fonetik, leksik, grammatik tomonlarini amaliy jihatdan biladi. Maktab ta'limalda ham tilning bu uch tomoni til o'rganish uchun asos hisoblanadi. Tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasiga bog'lab, bolalarda orfoepiya, orfografiya, grammatik, punktuatsion, stilistik malakalar hosil qilinadi.

Tilning fonetikasini o'zlashtirish o'quvchilarning tafakkurini o'stirish bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi. Nutq tovushi so'z tarkibida o'rganiladi. Nutq tovushini so'z tarkibida o'rnatish bolalarning fonematik eshitishini (nutq tovushini so'z tarkibida to'g'ri eshitish, aytish, ajratish, anglash fonematik eshitish komponentlaridir) taraqqiy ettiradi. Fonetika mashg'ulotlarida nutq tovushlariga ko'ra so'z ma'nolarining o'zgarishi ustida ishslash, so'zlarni tovush va bo'ginlarga ko'ra analiz qilish, berilgan harf, bo'g'inlar yordamida so'z, so'zlar ishtirokida gap tuzish bolalarning analistik-sintetik faoliyatini taraqqiy ettiradi.

Nutq tovushlariga ko'ra so'z ma'nolarini chog'ishtirish orqali bolalar juda ko'p imlosi qiyin so'zlarning yozilishini o'zlashtirib oladilar. Masalan: hush (aql)- xush (yaxshi), xol (yuzdag'i xol) – hol (hol-ahvol), xurma (idish)-hurma (itning hurishi), shox (daraxtning shoxi) – shoh (podshoh), xatlab (xatga olingan) – hatlab (sakrab), ham (egilgan) – ham (bog'lovchi) va shu kabi. Ko'rinadiki, tilning fonetikasi o'rganilganda nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz etishga o'rnatish o'quvchilarning fonematik eshitishlarini taraqqiy ettirish, bolalarda orfografik malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

Til hodisalarini ajratishga o'rnatish tamoyili har bir mavzu, har bir bo'limni o'tish paytida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quv materialining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinadi.

Tildan o'rganiladigan har bir mavzuning mohiyatiga mos keladigan ish uslubini tanlash, grammatik tushunchalarning asosiy belgilariga rioya qilish, qonunqoidalalar ustida yetarli mashq o'tkazish orqali bolalar til hodisalarini ajratishga o'rganishadi. Professor L.P.Fedorenko bu tamoyilni amalga oshirishda quyidagilarga rioya qilishni tavsiya qiladi:

- grammatika darslariga bog'lab, o'quvchilarda orfoepik malakalarni hosil etish;
- grammatik mashg'ulotlarida o'quvchilarga mantiqiy fikrlash yo'llarini o'rnatish;



v) til darslarini boshqa o‘quv predmetlariga bog‘lab o‘rganishni tashkil etish, bolalar nutqini turli so‘zlar, terminlar bilan boyitish.

Shunday qilib, o‘quvchilarni til hodisalarini ajratishga o‘rgatish ona tili o‘qitishning eng muhim o‘ziga xos tamoyili bo‘lib, uni amalda qo‘llash bilimlarning puxta bo‘lishini ta’minlaydi, nutq malakalarining rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar:

1. A.G‘ulomov, N.Ne’matov «Ona tilidan ta’lim mazmuni». –Toshkent: «O‘qituvchi», 1995.



INGLIZ TILI DARSLARIDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Ataxanova Gulnar Orinbaevna
Toshkent davlat agrar universiteti
Nukus filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tezisda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy ta'lism texnologiyalaridan foydalanish, innovatsion ta'lism texnologiyalarining ahamiyati, afzalliklari va dolzarbligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lism, innovatsiya, texnologiya, pedagogik, mustaqil, usul.

Istiqlol davrida mamlakatimizda ta'lism tizimiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, ingliz tilining ommalashib borayotganligi til ta'liming yanada takomillashishini talab qilmoqda. Ingliz tilini o'qitishda ham mashg'ulotlarda o'quv materiallari muayyan izchillikda maqsadli yo'naltirilishi, muammoli ta'lism texnologiyalaridan keng foydalanish, ma'lum bir grammatik mavzu doirasida tilining barcha imkoniyatlardan foydalanib matnlar yaratish, tarjima qilish, savollar tuzish, matn ustida iashlash, mustaqil ta'lism ishlari ko'zda turilgan.

Amaliy mashg'ulotlarda nutqiy malaka, ko'nikmalar amaliy mashqlar, olingen bilimlarni takrorlash orqali shakllanadi. Shuningdek, talabaning ixtisosiy nutqini shakllantirish va rivojlantirish ko'zda tutilgan. Ixtisosiy nutq tilining ilmiy uslubiy qonuniyatlarini, ixtisosiy atamalarni bilish, o'zlashtirish, ular yordamida o'z ixtisosligiga oid yozma matnlarni tuza olish, ixtisosiy og'zaki nutq malakasini egallash orqali shakllanadi. Shu sababli ilmiy uslubni va ixtisosiy atamalarni o'rgatishga alohida e'tibor berish lozim. Talaba ta'lism olayotgan mutaxassislik bo'yicha yozilgan adabiyotlardan olingen matnlarni tarjima qilish, tahlil qilish, ixtisosiy matn tuzishni mashq qilish, ixtisoslikka oid terminlarning ma'nolarini o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishlari nazarda tutiladi.

Ta'lism jarayonida ilmiy matnlarni o'rghanish jarayoni – nutqiy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, turli matnlar tuzish, ko'pincha ilmiy matnlarni, ixtisosiy matnlarni to'g'ri tuza olish malakasini egallashga ko'maklashadi. Shuning uchun adabiy til me'yorlari izchillik bilan o'qitilishi, o'rgatilishi lozim. Hozirgi kunda ingliz tilining ommalashib borayotganligini hisobga olgan holda, ingliz tilida nutqiy faoliyatni shakllantirish ham asosiy muammoli vazifalardan biridir. Chunki, talaba uslubiy va nutqiy farqlarni anglay olishi, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lib bormog'i lozim. Shuningdek, pedagogik texnologiyalardan har doim foydalanib borish maqsadga muvofiq. "Pedagogik texnologiya – bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida talabalarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va aks ta'sir mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarining jadal shakllanishini kafolatlaydigan jarayondir." Agar ingliz tili o'qituvchisi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llamas ekan, o'qitish samaradorligiga erishish mumkin bo'lmay qoladi. "Ma'lumki, interfaol usullarni qo'llab pedagogik texnologiyalar asosida dars tashkil qilinganda an'anaviy dars uslublaridan farqli holda, o'qituvchi va talabaning hamkorligi, teng munosabati, talabaning o'qituvchidan ko'ra faolroq bo'lishi talab qilinadi." Haqiqatan ham, dars samaradorligi ko'p jihatdan bilim beruvchining mahoratiga bog'liq. Shu sababli hozirgi kunda ta'luming interfaol usullarini amalyotga tadbiq qilish davr talabi, zamonaviylikka intilgan o'qituvchigina bugungi talablarga mos keladigan darajada yaxshi natijalarga erishishi ta'lism jarayonida sinovlardan o'tayorgan tajribalar asosida isbotlanib kelmoqda. Ta'lism tizimiga innovatsion yondashuv hozirgi kunning dolzarb vazifasi, chunki an'anaviy ta'limga talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topishlariga, mustaqil o'rghanib tahlil qilishlariga, o'zları xulosa chiqarishlariga o'rgatiladi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazivاسını bajaradi. Innovatsion faoliyat an'anaviylikdan voz kechib yangi bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida ta'lism sifatini oshiradi. Chunki, dars jarayonida har bir daqiqani talabalarning o'qib o'rghanishlarini to'g'ri tashkil qilib taqsimlash talab etiladi, hech bir talaba e'tibordan chetda qolmaydi. Bunung uchun hozirgi kunda oliy ta'lism tizimida samarali yo'lga qo'yilayotgan masofaviy o'qitish usuli o'qituvchi va talabalar uchun qator qulayliklarga ega. Masofaviy o'qitish usuli an'anaviy ta'lism shakllaridan farq qiladi. Bu ta'lism talaba va mutaxassisning vaqtini tejaydi, imkoniyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ta'lism olishlari uchun keng sharoit yaratib beradi.



Masofaviy o'qitish usuli ta'lim talabiga talabaning o'z ustida ishlashini tashkil etish, ko'proq bilim olishga intilishi, kompyuter bilan ishlash va olgan bilimlaridan ijodiy foydalanishni ta'minlaydi hamda olingan bilimlar testlar bilan tekshirilib, to'ldirilib borilishi mumkin. Dunyoda masofaviy o'qitish uslubini qo'llash bo'yicha juda kata tajriba orttirilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ta'lim oluvchiga yakka tartibda maslahat berish, ularni doimiy nazorat qilib borish, o'z vaqtida xatolarini to'g'rilab borishda juda katta qulayliklarga ega. Ya'ni ularning bilim saviyasi va malakaviy mukammalligini baholash maqsadida axborot texnologiyalarining turli variantlaridan foydalanish talabalarning o'qish sifati va mehnat unumtdorligini oshiradi.

Masofaviy o'qitish asosida ta'lim berish turi millionlab imkonlarga, hammadan ham ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olayotgan yoshlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib beradi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya berish jarayonida eng zamonaviy axborot, telekommunikatsiya va turli samarali texnologiyalardan foydalaniladi. Umuman masofaviy o'qitish tizimi talabalarda ta'lim tizimidagi bo'layotgan dunyoviy o'zgarishlar, texnik vositalardan foydalanish yo'llari, uning qanchalik afzallik tomonlari va shu bilan birga, qanday kamchiliklari mavjudligi haqida ma'lumot beradi.

O'qituvchilar innovatsiyalarning mohiyatini tushunib yetishi, ularni o'z ish faoliyatiga izchil joriy etishi, ta'lim jarayonining sifati va samaradorligi oshirib borishida katta ahamiyat kasb etadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.Sayidahmedov. "Yangi pedagogik texnologiyalar". Toshkent 2003 y
2. B.Farberman. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar" Toshkent. 2000 y



THE APHORISM AND THE APHORISTIC STYLE OF COMMUNICATION.

Navoi region Zarafshan city
specialized secondary school №1
teachers **Latipova Sadokat Bakhtiyorovna** and
Elmurodova Yulduz Sheralievna

Annotation. We aim to define the aphorism and the aphoristic style of communication. We will bring arguments in favor of the thesis that a fifth function of the language, the aphoristic function, can be placed on top of the other four functions (expressive, communicative, descriptive and argumentative). The characteristics of the aphoristic function (memorability, concision and ambiguity) are directly linked to those of the aphorism and the aphoristic style of expression.

Key words: aphorism , communication , proverb , axiom, quotations , language , writing, geographic area , anonyms .

From an etymological point of view, the aphorism comes from Greek, where “aphorismos” means to distinguish or define. The aphorism is part of a category of concepts with which it shares certain family traits, such as the axiom, the short dictum, the adage, the proverb, the cliché, the epigram. The aphorisms as short memorable expressions are found today in classic anthologies of quotations, such as Auden and Kronenberger, Gross and Strumpf and Auriel, rather than in the initial places of their creation. In the introduction of Webster’s New World Best Book of Aphorism, we can find an ample definition of the aphorism as “a concise statement of a principle, a short pointed sentence expressing a wise or a clever observation or a general truth” (Auriel and Strumpf, 1989). In common language, the aphorism is an original thought spoken or written by an author in a concise and memorable form. The fact that the aphorism is an original thought places it in antithesis with the doxa, the common opinion; hence the somewhat paradoxical, unique or unusual nature of the aphorisms; although it has a contextual nature, as it was thought for a specific historical period and geographic area, the aphorism passes on its richness to other generations. Unlike the aphorism, the cliché is a thought that has lost its original nature and has entered the anonymous daily circuit. The fact that it can be expressed both in writing and verbally is linked to his authorial nature. Unlike the cliché, the proverb or the adage, the aphorism is associated with the name of an author that created it either privately, in written, or spoken it in public. The aphorism has a touch of bravado, of the courage that stems mostly from its oral form. In this regard, Taleb (2010, pp. 108-109) provides an interesting etymological explanation: „Indeed, it had to be bravado, because the Arabic word for an improvised oneliner is «act of manliness», though such a notion of «manliness» is less gender-driven that it sounds and can be equally translated as «the skills of being human» (virtue has the same roots in Latin, vir „man”). As if those who could produce powerful thoughts in such a way were invested with talismanic power”. The concise form of the aphorism has to do with its minimalist nature. Through this process, one tries to express as much content as possible in the minimum form; this expresses its laconic mode or simplicity. However, the rhetoric and the meaning of the maxim differ from the aphorism: „Take it as a maxim and it is meant to guide our behavior; as an aphorism, and it invites reflection on the very basis of behavior” (Morson, 2004 p. 252). The maxim, the principle or the spiritual saying indicates how we should live, while the aphorism makes us meditate on what is essential. The memorable form of the aphorism is determined by the poetic nature and concision of the thought. The aphorism is similar to a jewel. Its concise form offers it the opportunity to be easily remembered. Due to its memorable nature, the aphorism is frequently quoted when the situation “requires it”. The condensed definition is one of the forms chosen for persuasion by the media, but also by the propaganda. J. Geary (2005, pp. 8-20) in his book World in a Phrase: A Brief Histhory of The Aphorism identifies five laws of the aphorism: (1) It must Be Brief; (2) It must Be Definitive; (3) It must Be Personal; (4) It must Have a Twist; an (5) It must Be Philosophical. The aphorism as independent judgment has been used in various ways over time in religious texts (the book of Proverbs and the Ecclesiastes in the Bible, the Koran, Sutras etc.) for presentations (the writings of Heraclitus, Hippocrates and Epictetus), for satires (Martial, Aesop or Al-Maari), for moral thoughts (La Rouchefoucald, La Bruyère or Chamfort) or for philosophical thoughts (Pascal,



Schopenhauer, Nietzsche, Heidegger, Cioran or Wittgenstein). Unlike witticisms, frivolous and lacking in substance, valuable aphorisms are deep and spiritual thoughts that require time to be enjoyed, understood and assimilated. Taleb advices us (2010, p. 110): "You never have to explain an aphorism – like poetry, this is something that the reader needs to deal with by himself". And the fact that each aphorism is a complete and independent unit in itself, absolutely distinct from the other, should change even our reading habits and make us read them in small, homeopathic doses.

The aphorisms distinguish themselves from other types of expression by their lapidary and memorable form. The content of aphorisms is a personal and original one. The aphoristic function of language is related to an invitational rhetoric through which the other is invited to enter the world of the author, to see and understand things as they are seen and understood by him, without resorting to descriptions or arguments. Therefore, the aphorism is not really linked to the truth; it is not intended to describe or explain reality, but to inspire people. The aphoristic strategy offers problematological answers that do not close and solve the problem triggered by the question, but opens it in a space of meaning, dialogue and interpretation. The aphoristic strategy is not cumulative, as is the strategy of sciences; the aphoristic strategy, based on the problematization method, is constructive, since it provides new possibilities of interpretation through the alternatives it finds. A new meaning can arise if we follow the advice of the famous Polish aphorism writer Stanislaw Lec: "Think before you think!"

References

1. Auden W. H. și Kronenberger, eds. (1981). The Viking Book of Aphorisms: A Personal Selection. No place: Dorset.
2. Auriel, D. și Strupf, M., ers. (1989). Webster's New World Best Book of Aphorism. New York: Webster's New World.
3. Bühler, K. (1934). Sprachtheorie: Die Darstellungsfunktion der Sprache. Jena: Verlag von Gustav Fischer. Gross, J., ed. (1983). The Oxford Book of Aphorisms. Oxford: Oxford University Press.
4. Geary, J. (2005). World in a Phrase: A Brief History of The Aphorism. New York: Bloomsbury.
5. Kraus, K. (1990). Half-Truths and One-and-a-Half Truths, ed. H. Zohn. Chicago: University of Chicago Press. Krystal, A. (2011). Except When I Write. New York: Oxford University Press.
6. Morson, G. S. (2004). "Aphoristic Style: The Rhetoric of the Aphorism". În W. Jost și W. Olmsted, eds., A Companion to Rhetoric and Rhetorical Criticism (pp. 248-265). Wiley-Blackwell.
7. Meyer, M. (1986). De la problématologie: philosophie, science et language. Bruxelles: Pierre Mardaga.
7. Popper, K. (2002). „Spre o teorie rațională a tradiției”. În K. Popper Conjecturi și infirmări: creșterea cunoașterii științifice (pp. 163-181).



THE ROLE OF CULTURE IN TEACHING LANGUAGE

Fotima Uktamovna Abduvakhanova
Ferghana State University Academic Lyceum

Abstract: In today's era of globalization one of the most fundamental power in retaining the cultural diversity is language . Every single student without prioritizing his own cultural identity should be aware of the in time hundred traditions and culture of the country whose language they are learning . Thereby, harmony among diverse nations others culture will be observed in the far off future.

Key words. Culture , knowledge , diverse nations, understanding, learners, techniques , target language , own meanings,

To understand the importance of culture we need to know to what extent cultural background knowledge influences language learning and teaching, and how can we take advantage of that influence. To account for roles culture plays in language learning and teaching, it is necessary to demonstrate the functions it may perform in the components of language learning and teaching, such as listening, speaking, reading and translating.

Admittedly it is not an easy task to teach culture. A foreign culture and one's own culture should be placed together in order for learners to understand a foreign culture. Learners' interaction with native speakers or text will require them to construct their own meanings rather than having educators simply transfer information about people and their culture, and therefore non-native speakers should have opportunities to make their own meanings and to reflect on both the target culture and their own.

There are many opinions about what techniques should be used in the classroom in order to develop cultural awareness in learners. Literature and history have been found to be very effective for making learners sensitive to alternative cultural perspectives . This principle should ensure that learner's own culture is not dealt with as an abstract concept but the focus is put on learner's involvement in it. Learners are encouraged to reflect on their culture on the basis of their own experience. The fact that these analyses take place in English lessons and learners use techniques which they would use to explain their own culture to people from other cultures, make this different from culture teaching in other subjects. Even though learners were born into the culture and are familiar with it, they need to require a more distant and general look on their culture together with some information in these analyses.

Moreover, textbooks also usually play a dominant role among materials used in the lessons. They serve as a rich source of topics, texts, visuals and language as well as help to form syllabus of the course.

Textbooks used in english lessons are primarily designed to facilitate foreign language learning but because of interrelation of language and culture, textbooks are expected to include some aspects of target language culture as well. Furthermore, to become fluent in the second language, communicative competence is needed. It covers a cultural understanding of social behavior, routines and discourse nuances as well as society's norms and values. There are indicated strategies that should be used in the classroom in order not to develop cultural awareness but also boost communicative skills in EFL classroom.

- a. Cultural lessons and activities need to be planned as carefully as language activities and integrated into lesson plans.
- b. Present cultural topics in conjunction with related thematic units and closely related grammatical content whenever possible.
- c. Use a variety of techniques for teaching culture that involve speaking, listening, reading, and writing skills. Do not limit cultural instruction to lecture or anecdotal formats.
- d. Make a good use of textbook illustrations and photos. Use of realia.
- e. Use cultural information when teaching vocabulary. Teach students about the connotative meaning of new words.
- f. Use small-group techniques, such as discussions, brainstorming, and roleplays, for cultural instruction.
- g. Avoid a "facts only" approach by including experiential and process learning wherever possible.



- h. Use the target language whenever possible.
- i. Test cultural understanding as carefully as language is tested

Often, the lack of materials at the instructor's disposal that are conducive for culture instruction causes a major problem when trying to teach culture in the classroom. To overcome the former problem EFL teachers should look into disciplines such as history, religion, psychology, philosophy, and anthropology and to pull from these fields pieces of knowledge that can enhance the instruction within our classroom.

Conclusion. It's very clear from the above discussion that culture and language are intricately interwoven so that one cannot separate the two without losing the significance of either language or culture'. If any one of them is separated the other remains incomplete. In EFL or ESL class room the students should be taught English with the culture associated with it so that the students can acquire the target language with cultural background and correspond in real life situations. It is observed that many students, who have excellent academic performance in English subject,

sometimes, find it very difficult to correspond with native speakers or in real life situations. This might be the result of learning English without proper awareness of its culture. Therefore, the role of culture that it plays in teaching and learning of English as a foreign/ second language can't be avoided while designing course for EFL/ ESL students and in the class room situations. As a teachers we should keep in mind the importance of culture and must have a prior knowledge of the cultural knowledge of the chapter or lesson as we are going to teach the students.

References

1. Byram, M. & Flemming, M. (Eds.) 1998. *Language Learning from an Intercultural Perspective*.
2. Cambridge: Cambridge University Press. Alptekin, C. 2002. 'Towards intercultural communicative competence in ELT'. *ELT Journal*
3. Jerrald Frank. 2013 English Teaching Forum. "Raising Cultural Awareness in The English Teaching Classroom"
4. The English language in the outer circle. In R. Quirk & H. G. Widdowson (Eds.), *English in the World:Teaching and Learning the Language and Literature* (pp. 11-5.. Cambridge,England: Cambridge University Press.



O'ZBEK TILI DARSLARIDA BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSIDAN FOYDALANISH

Xaldarova Xanifa Abduraimovna

Angren shahar 1-sonli kasb-hunar maktabining

Devonxona nazoratchisi

Tel: +99893 567 60 82

Annatatsiya: Ushbu maqolada buyuk ajdodlarimiz meroslaridan foydalananish va badiiy asarlardagi qahramonlar hayoti, ezgu ishlari orqali yosh avlodga ta'lif tarbiya berish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Irodali inson, pedagog, o'quvchi, uslub, savodxonlik, interaktiv.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-marifiy o'zgarishlar mazmunida tarixiy, milliy, ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Abu Nasr Forobi, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Kaykovus singari Sharq mutafakkirlari e'tirof etgan inson ma'naviy kamolotining zaruriy shartlaridan biri mustaqil va mantiqiy tafakkurdir. Bu jarayonda o'quvchi mukammal faollik, ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatadi. Madaniy merosimizga o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shgan allomalarim iz Beruniy, Forobi, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar ijodini o'rganish kelajak avlod uchun katta ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Yusuf Xos Hojib o'z zamonasining donishmandi, mutafakkiri, ilg'or fikrli faylasufi edi. U o'z asarida ilmfan, bilim va zakovatga alohida e'tibor bilan yondashadi:

Biligsiz kishi bir yemishsiz yig'ach,

Emishsiz yig'achig" neku qilsu ach.

(Bilimsiz kishi bir mevasiz yog'ochdir, Mevasiz yog'ochni och kishi nima qilsin). Bu ifodalarning ixcham, lo'nda, samimiyat bilan yo'g'rilganligi e'tiborni tortadi. Ifodaning ravonligi, tilga olinayotgan hodisaning tabiiyligi, bevosita kundalik turmush bilan zikh bog'lanib ketganligi ham uning ta'sir kuchini oshiradi. So'z zahirasi boy o'quvchining fikrlash doirasi keng, ma'naviyati yuksak, o'qish-o'rganishga ishtiyogi baland bo'lishi tabiiydir. Adabiyot darslari orqali o'quvchilarda savodxonlik sifatlari sh akllantiriladi, kitobga bo'lgan muhabbat tuyg'usi uyg'onadi, ularning atrof-muhit haqidagi bilimlari kengaytiriladi, nutq va tafakkuri oshadi. Shu o'rinda 7 sinf o'zbek tili kitobini XXI bo'limi orqali birinchi bo'lib yozuvchi Muhammad Alining "Amir Temur" bobomiz haqida ibratli matn berilgan bo'lib, undan so'ng Amir Temur o'gitlari o'quvchilarga aniq va tushunarli holda bayon etilgan. Bo'limdagи mavzularni o'tishda quyidagicha usullarni qo'llashimiz mumkin.

O'quvchilar buyuk mutafakkirlar: Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo va Amir Temur nomlarini esda saqlab qolishlari lozim.

Agar o'quvchilarni boshlang'ich sinfdan boshlab ma'naviy dunyoqarashini shakllantirar ekanmiz, birinchi navbatda ularning qiziqishlarini, bilish darajasini hisobga olishimiz kerak. Shu o'rinda o'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini o'stirish va barkamol inson qilib voyaga yetkazishda quyidagi gapga ahamiyat qaratish lozim:

- o'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini o'stirishda mavzularni, ma'naviy tushunchalarni bir-biri bilan chambarchas bog'liq tarzda o'rgatib borish.

- o'quvchilarning mavzularni o'zlashtirishlariga, mustaqil fikrlashlariga erishish

- darsda turli usullardan, interaktiv metodlardan, ilg'or pedagogik texnologiyalardan, o'rinli va maqsadga muvofiq foydalananish.

- metodik yangiliklardan va pedagogik tajribalardan har doim boxabar bo'lib, ularni ta'lif jarayoniga tatbiq etish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, o'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini o'stirishda eng munosib, eng qulay metod va usullardan, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'z o'rniда va maqsadga muvofiq foydalananish, o'qish-o'qitish ishlarida samarali natijalar beradi. Pedagog va o'quvchilarning birgalikdagi ijodiy faoliyati mavzularning o'zlashtirilishini osonlashtiradi.

Adabiyot:

1. Sariyev Sh. Ma'naviyat ko'zgusi. O'quvchilarning milliy ma'naviyatini shakllantirishda boshlang'ich ta'lifning o'rni. - T.: "TDPU", 2009. - 250 b.



ИНГЛИЗ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА АКТДАН ФОЙДАЛАНИШ

Атаханова Гулнор Орынбаевна
ТошДАУ Нукус филиали ўқитувчи
Тел: 97-500-89-90

Аннотация: Ушбу тезисда олий таълим тизимида инглиз тили дарсини ўқитишида ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш ва дарс самарадорлигига эришишда аудио, видео материалларнинг аҳамияти хусусида сўз юритилади.

Калит сўзлар: инглиз тили, самарадорлик, аудио, видео, медиа, ахборот коммуникация технологиялари

Соғлом авлод-комил инсон тарбияси узоқ давом этадиган мураккаб ва узлуксиз жараёндир. Узлуксиз таълим малакали рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг асоси бўлиб таълимнинг барча турларини давлат таълим стандартларини кадрлар тайёрлаш тизими тузилмаси ва унинг фаолият кўрсатишини ўз ичига олади. Мамлакатимизда олиб борилаётган таълим соҳасидаги ислоҳатлар таълимнинг кундан кунга янги, замонавий шаклларидан унумли ва фаол фойдаланишни, тилларни ўқитишида энг сўнгги янгиликлар асосида дарсларни самарави ташкил этишини талаб қилмоқда. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, оммовий тус олган ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиб дарс ўтишнинг ҳам ўзига яраша муаммолари пайдо бўлмоқда. Тўғри, медиа таълим маҳсулотлари жуда кўп ва ранг-баранг, лекин уларнинг барчасидан ҳам тўғридан-тўғри фойдаланиш мумкинми? Дарсларда фойдаланилаётган аудио ва видео материаллар сараланганми, бирон-бир меъёrlарга асосланганми?-деган саволлар ўз-ўзидан пайдо бўлмоқда. Аслида бу материаллар ҳам бирон мезон асосида дарс жараёнига жорий қилиниши керак эмасми?

Медиатаълим жуда самарави ва анча долзарб таълим тури саналади. Лекин бу борада айнан аудио ва видео материаллардан дарс жараёнида фойдаланишнинг маълум қоидаларига амал қилинса яъши натижа беради. Масалан, дарс жараёнида фақат аудио ва видео материалларни тинглаб вақт ўtkазиш эмас, балки ҳар бир гап, матн устида ишлашга кўпроқ вақт ажратиш, дарсни тўғри тақсимлаш мақсадга мувофиқ. Аслида инглиз тилида тайёрланган электрон ўкув адабиётларининг ҳам маълум таълим йўналишларига мос келадиган турларидан фойдаланиш ва талаффуз меъёrlарини шу материаллар асосида ўргатиш анча самарави эканлиги исбот талаб қилмайдиган ҳолат.

Инглиз тилидан тайёрланган медиатаълим материаллари ва уларнинг сифати, улардан дарс жараёнида фойдаланиш масаласи шу куннинг долзарб масалаларидандир. Тил ўргатишга мўлжалланган ҳар қандай аудио-видео материаллар энг аввало тил меъёrlарига тўлиқ риоя қилинган шаклда яратилганлиги нуқтаи назаридан ўрганилмоғи лозим. Бу масала кўп вақт, билим, сабр-тоқат ва масъулият талаб этиши аниқ. Чунки биз технологиялар даврида яшяпмиз, истасак, истамасак ахборот коммуникацион технологияларга мурожаат қилмасдан иложимиз йўқ, зеро, давр шуни тақоза қилмоқда. Тил ўргатиш ва ўрганиш эса ўзига яраша жуда катта машаққатли иш экани ҳеч кимга сир эмас, демак, тил материалларидан фойдаланишда таълим йўналишига, соҳавий хусусиятига кўра материаллардан фойдаланган ҳолда даслар ташкил қилинса, талабаларнинг инглиз тилига бўлган қизиқиши ҳам ортиб боришига кенг имкон яратилган бўларди. Бу масалага жиддий ёндошиш эса биз инглиз тили ўқитувчиларнинг зиммасидаги вазифадир. Чунки, хозирги кунда ўқитувчи ҳам, талаба ҳам, ҳатто мактаб ўқувчиси ҳам компьютер ва интернетлардан жуда унумли фойдаланишади, айнан мана шу интернет тармоқларига жойланган материаллар уларнинг ўқиб ўрганишлари учун хизмат қиласи ва жуда қулай, шунинг учун ҳам биз ўз навбатида бу жойлаштирилаётган материаллардан қандай фойдаланиш керак, қандай мустақил ўзи ўрганиши мумкинлиги юзасидан тўғри йўналтира олишимиз зарур. Ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиш энг аввало дарснинг сифатини яхшиласа, вақтдан ҳам унумли фойдаланишга имкон яратади. Кам вақт сарфлаб талабаларнинг кўпроқ билим олишларини тахминлайди. Бизнинг асосий мақсадимиз ҳам имкон даражасида барча имкониятлардан тўлиқ фойдаланиб ёшларга чуқур билим беришга эришишга қаратилган. Зеро, ҳар бир ёш эртанди кунимизнинг эгалари, баркамол келажагимиздир. Уларнинг қай даражада билимли, илмли, зукко бўлиши эса айнан мана шу таълим-тарбия



негизида шаклланади. Шу сабабли ҳам таълим жараёнида илғор ттаълим технологияларидан фойдаланиш, интерфаол методлардан фойдаланиш, ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланиб дарс самарадорлигига эришиш ҳар бир ўқитувчининг асосий вазифаси эканлигини унутмаслигимиз даркор.

Бу каби амалий ишларимиз билан талабаларимизнинг ўзларида бор билим, салоҳиятини тўғри йўналтира оладиган фидоий инсонлар етишиб чиқишига замин тайёрлаймиз. Чунки, бугунги ёш авлод ўзларининг билими, ақл-идроқи билан ватанимиз эртанги кунининг ишончли қўргони, билим салоҳияти билан муваффақиятларимиз гаровидир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Нишонова С. Комил инсон тарбияси. Т.: Истиқлол. 2003.
2. <http://library.ziyonet.uz/> - ta'lim portali.



ADABIYOT DARSALARIDA O'QUVCHILANI IJODIY FIKRLASHGA O'RGAТИSHNING ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАР

Bobokulova Maftuna Gayratovna

Angren shahar 1-sonli kasb-hunar mактабининг

o'zbek tili fani o'qituvchisi

Tel: +99899 354 89 90

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyot fanini o'qitishda interfaol metodlarning ahamiyati va o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rnatish haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy fikrlash, tafakkur, og'zaki nutq, yozish ko'nikmasi,

Adabiyot fanining oldiga qo'yiladigan bugungi vazifalar milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlanadirish; badiiy adabiyotga qiziqtirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

O'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash layoqatini shakllantirish ta'limning asosiy maqsadlaridan biridir. Jumladan, adabiyot ta'limidagi o'quv topshiriqlarning mazmuni ham muloqot asosida o'quvchini ijodiy fikrlashga undaydi.

Ijodiy tafakkur o'quv topshiriqlari orqali shakllanadi. Shu bois maktab darsliklarida o'quv topshiriqlarning xarakteriga juda katta e'tibor qaratilgan. Ijodiylikning yana bir muhim belgisi mustaqil ishlashdir. Mustaqil ishlash, birinchidan, ko'nikma va malakalarni talab etsa, ikkinchidan, tafakkur va xotira bilan chambarchas bog'langan.

Adabiyot o'qitishda oldingi o'rganilganlarga tayanib, yangi tushunchalarni kuzatish, guruhlariga ajratish, qiyoslash, umumlashtirish orqali o'zi mustaqil qoida, ta'rif chiqarishga o'rgangan o'quvchi bir-biriga o'xshash va farqli hodisalar ustida ishlaydi, o'qituvchi yordamida xulosa va hukm chiqaradi. Ta'lim-tarbiya tizimi kadrlarning yangi avlod tafakkurini, ongini shakllantirishga xizmat qiladigan zarur bir sohadir. Yoshlarga ta'lim berishdan asosiy maqsad barkamol avlod ongiga fan asoslarini puxta singdirish orqali ularni diyonatli, e'tiqodli qilib o'stirish, ijtimoiy hayotdagi har bir hodisaga ongli yondashish ruhida tarbiyalash, egallagan bilim va ko'nikmalarini hayotga tatbiq etish qobiliyatini tarkib toptirish, rivojlanirishdan iborat. Bu jihatdan ayniqsa, umumta'lim maktablarida adabiyot darslari yosh avlodni jamiyatning olg'a surayotgan yuksak g'oyalari ruhida tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

Adabiyot o'qitishning vazifasi o'quvchini kitobga ishqiboz, o'qiganini idrok etadigan, idrok etganini tahlil eta oladigan inson qilib tarbiyalashdan iborat. Adabiyot o'quv fani sifatida murakkab va ko'p qirralidir. Ayni paytda adabiyot darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlanirish, ularni mustaqil fikrlaydigan tafakkuri ozod shaxslar qilib tarbiyalash asosiy vazifalardandir.

O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rish mobaynida o'quv vositalarini dars mavzusiga qarab tanlaydi va asosiy e'tiborni qo'llaniladigan metodlar va o'quv vositalariga qaratadi. O'qituvchi har bir mavzuga mos yangi usullar va texnik vositalardan o'z o'rnida va unumli foydalana olsa, shundagina ko'zlagan maqsadga erisha oladi. Bu esa o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, berilgan aniq mavzu bo'yicha atroflicha fikrlashga va ijodiy faol bo'lishga yo'naltiradi. Bu jarayonda interfaol usullardan foydalanimganda o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, sog'lom muloqot, munozara, vaziyatni baholash ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Ijod bu - faoliyat. Lekin o'quvchining barcha xatti-harakatini ijodiy faoliyat deb atay olmaymiz. Ijodning amaliyotdagi natijasi originallik va noyobligi bilan ajralib turadi. Muammoni eski usul, yondashuv bilan yechish imkoniyati bo'limganda, oldin qo'llanilmagan, innovatsion vositalardan foydalanim natijaga erishish ijod hisoblanadi.

Ijod insoning qibiliyati, maqsadi, intilishi, ijtimoiy-psixologik muhiti kabi omillar bilan bog'liq. Dars davomida mavzu yuzasidan kelib chiqqan muammolarni innovatsion texnologoyalarni qo'llash orqali oson yechimini topish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Xazratqulov O'M. Usmonboyeva M.H. Ta'limni tashkil etsihda zamonaviy interfaol metodlar. O'quv- uslubiy tavsiya.-Toshkent-2016

2. Ro'ziyeva D.I. Usmonboyeva M.H. Xoliquova Z. Interfaol metodlarning qo'llanishi va moyiyati.Metodik qo'llanma.-Toshkent-2013



BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH YO'LLARI

Narziyeva Sarvinoz Jamshid qizi

Samarqand Davlat Universiteti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lif va sport
tarbiyaviy ishi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Telefon raqami: +99894 542 17 09

Elektron pochta: sarvinoznarziyeva2001@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga, o'qish asnosida uqishga ko'maklashish haqida ma'lumot beradi.

Kalitso'zlar: dastur, darslik, konsepsiya, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", mexanizmlar.

Har qanday jamiyatning taqdiri unda yashaydigan insonlar tomonidan belgilanadi. Jamiyatni nurli kelajak sari yetaklash ham, tubanlik qa'rige tortish ham odamning qo'lida. Shuning uchun ham jamiyat a'zolari, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy kamoloti bugungi kunda o'ta dolzarb masalaga aylangan. "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi ham odam omilining hal qiluvchi ahamiyat kasb etganidandalolatdir.

Bu hujjalarda o'quvchi shaxsining aqliy va ma'naviy kamoloti birinchi o'ringa chiqarildi. Ta'lif konsepsiysi, standarti, dastur, darslik hamda metodik qo'llanmalar insonparvarlik yo'nalishiga solindi. Ular mutaxassis tayyorlashga emas, balki sog'lom ma'naviyatlari odam shakllantirishga xizmat qila boshladi. Milliy pedagogika ilmi ham ma'naviy barkamol avlod tarbiyalash yo'llarini tadqiq etmoqda. Yosh avlod aqliy-ma'naviy kamolotini ta'minlashda ularning mustaqil fikrlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, avvalo, «mustaqil fikrlash» tushunchasi nima ekanligi hamda uning barkamol insonni shakllantirishdagi ahamiyati qandayligini aniqlab olish muhimdir. Tafakkur jarayoni, xususan, uning mustaqil fikrlash turi haqida psixologlar, pedagoglar turli daraja va miqyosda o'z qarashlarini bayon etganlar. Psixologlarning ta'biricha, fikrlash, ya'ni tafakkur – odam miyasida sodir bo'ladigan jarayon. Sezgi organlari yetarli bo'lmay qoladigan o'rinnlarda odam va olamning xususiyatlari tafakkur orqali o'rganiladi. Tafakkur – aqliy faoliyatning, ongli xatti-harakatlarning majmui. U tevarak-atrof, voqelik hamda ijtimoiy muhitni bilish quroli, inson faoliyatini to'g'ri va samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kishi fikrlash jarayonida o'zi ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riliqi, aniqligi, haqiqiyligi hamda ularning borliqqa munosabatini aniqlaydi.

Tafakkur orqali kishi odam va olam sirlarini o'rganishda o'zidan oldingi qarashlar, tushunchalar, farazlar, chiqarilgan xulosalar hamda qabul qilingan qarorlarning qanchalik to'g'ri yoki noto'g'riliqini belgilab oladi. Mulohaza yuritib, narsa-hodisalar o'rtasidagi munosabatlar, xossalalar, xususiyatlardan, ularni bir-biri bilan bog'lab yoki ajratib turuvchi jihatlar hamda ularning faoliyatni mexanizmlarini anglab etadi. Bu haqiqatni hazrati Navoiy bundan necha yuz yillar ilgari: "Har ishniki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod", - deya ifodalagan.

Tafakkur jarayoni insonning ruhiyati bilan uzviy bog'liqlikda kechadi. Fikrlayotgan odamning ichki dunyosi qanchalik boy, dunyoqarashi nechog'lik keng, bilimi qay darajada chuqur bo'lsa, fikrlari, xulosalarining saviyasi ham shuncha baland bo'ladi. Teranlik, tiniqlik, mantiq, erkinlik, mustaqillik, badiylik, ijodiylik inson tafakkuri darajasini ko'rsatuvchi ijobiy xususiyatlardir. Odam dunyoni tafakkur orqali anglaydi, fikr va ruhiyat yordamida undan o'ziga xos tarzda ta'sirlanadi, xulosalar chiqaradi. Ruhiyat bilan shug'ullanadigan mutaxassislarining dalolat berishlaricha, inson fikrlash jarayonini yuzaga keltirishning asosiy sharti undagi borliq sirlarini bilishga bo'lgan intilish, ichki ehtiyoj, ya'ni motivdir. Usiz insonda fikrlash paydo bo'lmaydi. Boshlang'ich sinflar o'qish darslari jarayonida darsga tegishli bo'lmagan biror qiziqarli hayotiy mavzu va hodisalar, kino yoki futbol o'yinlari kabilalar muhokama qilinganda o'quvchilarning ko'p narsa bilishlari ayon bo'ladi. Bu mazkur hodisalar o'quvchilarning o'zlari uchun bevosita qiziqarli bo'lganidan dalolatdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, "O'qish kitobi" darsliklaridagi o'quv materiallari bolalarning tabiatini, yosh xususiyatlariga mos va qiziqarli bo'lishi, matnlar yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar biri ikkinchisiga o'xshamaydigan tarzda tuzilishi, ularning mantiq asosiga qurilishi, o'quvchilardan mustaqil fikr-mulohazalar talab qilishi o'quvchilarni faollashtiradi.



Boshlang'ich sinflar ta'limalda o'qish o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra alohida o'rinni egallaydi. O'qish asnosida nafaqat savodxonlik yoki axloqiy tarbiya, balki bilim olish, dunyoqarashni kengaytirish, tasavvurni boyitish, mustaqil faoliyatga intilishning dastlabki belgilari ham shakllana boshlaydi. Boshlang'ich sinflardagi boshqa o'quv fanlarini o'zlashtirishda samaradorlikka erishish o'qish darslarining qanchalik to'g'ri, savodli, oqilona va maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilishi bilan uzviy bog'liqdir. O'quvchilar matn mutolaasining to'g'riligi, tezligi, ongliligi va mazmunini o'zlashtirish kabi xususiyatlari bilan ilk bor o'qish darslarida tanishishadi. O'qish orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'nda tutilgan bilim, egallanishi lozim bo'lgan ko'nikma, malakalarning shakllantirilishi va takomillashtirilishiga imkon yaratiladi. Bundan tashqari, aynan o'qish asnosida insonni kashf etish, shu jarayonda o'zligini anglash, qolaversa, olam sirlarini bilishga ham erishiladi.

Boshlang'ich adabiy ta'limalda o'qishning quyidagi turlari ustuvor ahamiyat kasb etadi:



Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov M. „Milliy tarbiya yo'riqnomasi. G'arb va Sharq tarbiyaviy tajribalari namunalari tahlili” //Xalq ta'limi. 1993. - № 8. -B.6-10.
2. G'ulomov A. „Ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini aktivlashtirish”. -T.: O'qituvchi.1987.3. Husanboeva Q., Hazratqulov M..,, Sinfda o'qish metodikasi”O'quv qo'llanma. – Samarkand: SamDU nashriyoti, 2020.



SO‘Z MA’NOLARINING KO‘CHISH USULLARI

Qo‘sishnova Muyassar Umarboyevna
Ichki Ishlar Vazirligi Namangan akademik
litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya; ushbu maqolada so‘z ma’nolarining ko‘chish usullari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: nom ko‘chishi, sinekdoxa, metonimiya, metafora, hodisa.

Nom ko‘chishi asosida yangi ma’no hosil bo‘lishi barcha mutaxassislar tomonidan e’tirof etilsada, lekin nom ko‘chishiga olib keluvchi hodisalar, ularning turi masalasiagi qarashlar turlicha. Ba’zi ishlarda nom ko‘chishiga olib keladigan hodisaning ikki turi ko‘rsatilsa, ayrim ishlarda bunday hodisalarning undan ko‘p turlari ko‘rsatiladi. Lingvistik adabiyotlarning ko‘pchiligidagi esa (ayniqsa, keyingi vaqtarda nashr etilgan adabiyotlarda) nom ko‘chishiga olib keluvchi hodisaning to‘rt turi keltiradi: 1) metafora, 2) metonimiya, 3) sinekdoxa, 4) vazifadoshlik.

Ma’lumki, so‘zlar asl-real ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’noni ham anglatadi. So‘zlar ko‘chma ma’noda qo‘llanganda predmet-hodisalarini atabgina qolmay, o‘sha predmet va hodisalarini tasvirlash vazifasini ham bajaradi. Ko‘chma ma’no tildagi so‘zlarning to‘g‘ri ma’nosini negizida vujudga keladi. Ko‘chma ma’noli so‘zlar ilmiy va rasmiy uslubdan tashqari barcha uslublarda qo‘llaniladi. So‘zlarning ko‘chma ma’nosini faqat kontekstda reallashadi. Badiiy nutqda hatto o‘zining to‘g‘ri ma’nosini bilan qo‘llangan so‘z lug‘atdagi ayni shu so‘z bilan teng kela olmaydi. Chunki u estetik butunlik bo‘lgan yaxlit badiiy asar matni tarkibida boshqa so‘zlar bilan faqat semantik - grammatik jihatdangina emas, balki hissiy-estetik jihatdan ham munosabatga kirishadi. Metafora nominatsiya jarayonida muhim o‘rin tutishiga qaramay, shu kunga qadar ko‘proq badiiy vosita sifatida adabiyoshunoslarning diqqatini jalb qilib keldi. Lekin har qanday badiiy vosita, ifoda lingvistik vosita yordamida amalga oshiriladi. Shunday ekan, badiiy nutq tarkibidagi ko‘chimlar muayyan lingvistik qonuniyatlar asosida maydonga keladi. Shuning uchun ham ular adabiyotshunoslikninggina emas, tilshunoslikning ham tekshirish ob’ekti sanaladi. 1. Jinsdan turga ko‘chirilgan so‘zlarga “Ana mening kemam turibdi” jumlesi misol bo‘la oladi Bu yerda umuman “turibdi” so‘zi “langarda turibdi” xususiy ma’nosini anglatadi. 2. Turdan jinsga ko‘chirilgan so‘zlar “Minglab shavkatli ishlarni qildi Odissey... jumlasidagi, minglab so‘zi umuman “ko‘plab”ning xususiy xolati bo‘lgan uchun, bu o‘rinda, ko‘plab ma’nosini anglatadi. 3.. Turdan turga ko‘chirilgan so‘zlar masalan, “Mis bilan jonni bo‘shatib va suv zarrasini charchmas mis bilan kesib”. Birinchi holda “bo‘shatib”so‘j “kesib” ma’nosida, ikkinchi holda “kesib “ so‘zi, “bo‘shatib” ma’nosini anglatadi. Metonimiya ham nom ko‘chishi bilan yangi ma’no hosil bo‘lishiga olib keluvchi hodisalarning asosiylaridan hisoblanadi. Shu sababli bu hodisa ham nom ko‘chishi yo‘li bilan yangi ma’no hosil bo‘lishi haqida gap borgan ishlarning hammasida qayd etiladi. Metonimiya — narsa-predmetlar, belgilar, harakatlar o‘rtasidagi aloqadorlikka (bog‘liqlikka) ko‘ra nom ko‘chishidir.

“Bibixonim” gumbazi turar,

Bekasiday ko‘ngli yarimta...

Ko‘z o‘ngimda shahar yugurar.

Oqib borar nigohlarimda.

Bu yerda ham metonimiyaning an‘anaviy turidan foydalilaniganini kuzatamiz. Ya’ni bunda “shahar” so‘zi shaharda yashovchi jami aholi, insonlar ma’nosini anglatadi. Joy nomi va joy bildiruvchni so‘zlarda metonimiya sodir bo‘lishi nutqda ko‘plab uchraydi. Ayniqsa, joy nomini bildiruvchi so‘zlar o‘sha joyda ishlab chiqarilgan mahsulotni bildirishi orqali metonimiya sodir bo‘lar ekan, bu jarayon til hodisasi sifatida kuzatiladi. Masalan: Qorako‘l so‘zi asli Buxorodagi bir tumanning nomidir. Sinekdoxa asosida ma’no ko‘chish .Bu hodisa bir narsaning nomi bilan uning biror qismi (bo‘lagi)ni atash yoki, aksincha, qismning nomi bilan shu qism mansub bo‘lgan butunni atashdir. Mas, olma, anor, bodom kabi mevalar (qism) nomi bilan shu mevalarni anglat uvchi daraxtlarni atash, qo‘l so‘zi bilan shu a’zodagi bir qism (barmoq)ni atash sinekdoxa asosidadir.

Adabiyotlar:

1. Ўзбек тили лексикологияси. -T., 1983



“ҲАРАКАТ” КОНЦЕПТИНИНГ АСОСИЙ КОМПОНЕНТЛАРИ

Умарова Обидахон ЎзМУ
shakhlo.shakhobiddinova.95@mail.ru

Аннотация: Ҳозирги пайтда ҳаракатнинг айрим уюшмаган параметрларининг тасвири мавжуд, улар орасида ҳанузгача ички алоқалар аниқланмаган, шу сабабли улар ҳаракатни талқин қилиш учун етарли даражадаги тушунтириб берадиган кучга эга эмаслар. Бу шу билан изоҳланадики, ҳаракат у ишлайдиган контекстдан ажralган ҳолда ўзи кифоя қиладиган ходиса сифатида ўрганилади.

Калит сўзлар: Ҳаракат, ҳаракатсизлик, концепт, лингвистика, силжиш усули, йўналганлик/йўналмаганлик, абстракт семантик категорияси...

Ҳаракат деганда ҳаракатсизликка, тинч ҳолатга қарма-қарши бўлган, субъектнинг ма-конда қандайдир йўналишда силжиши, жойидан жилиши тушунилади.

Шу пайтгача лингвистикада силжиш феъллари синфининг ҳамда асосий ҳаракетистикаларининг тўлиқ ва адекват тасвири мавжуд эмас. В. Н. Топоровнинг таъкидлашича, «ҳаракат нима ва унинг асослари қандай» деган масала очилмай қоляпти (Топоров 1996). Ҳозирги пайтда ҳаракатнинг айрим уюшмаган параметрларининг тасвири мавжуд, улар орасида ҳанузгача ички алоқалар аниқланмаган, шу сабабли улар ҳаракатни талқин қилиш учун етарли даражадаги тушунтириб берадиган кучга эга эмаслар. Бу шу билан изоҳланадики, ҳаракат у ишлайдиган контекстдан ажralган ҳолда ўзи кифоя қиладиган ходиса сифатида ўрганилади. Ҳаракатнинг етакчи параметрлари сифатида йўналиш, бир томонга йўналганлик / ҳар томонга йўналганлик, ўсун, муҳит, бошланғич / охирги пунктлар, эркинлик / тобелик ва бошқа айрим ҳаракетистикалар қайд қилинади (Кильдебекова, Абдукова 2000).

Кўпчилик тилшунослар ҳаракатнинг асосий компонентлари сифатида **силжиш усулини** (бормоқ, юрмоқ (пиёда), бормоқ, келмоқ, юрмоқ (бирор транспорт воситасида), бормоқ, келмоқ, бориб-келиб турмоқ, қатнамоқ (отда, аравада, машинада ва ҳ.к.), силжиш муҳитини (бормоқ, келмоқ, юрмоқ (бирор транспорт воситасида), бормоқ, кетмоқ, юрмоқ (кема, пароход кабиларда), сузмоқ, юзмоқ, кема сафарида (сузиб) юрмоқ-учмоқ, парвоз қилмоқ; учиб юрмоқ), **йўналганлик/йўналмаганлик** (бормоқ-юрмоқ, келмоқ (пиёда), бормоқ, келмоқ, юрмоқ (бирор транспорт воситасида), бормоқ, келмоқ, бориб-келиб турмоқ, қатнамоқ (отда, аравада, машинада ва ҳ.к.)ни кўрсатадилар.

Абстракт семантик категорияси бўйича «умумий йўналтирилганлик» бир томонга йўналтирилган умумий маъносига эга силжиш феъллари (*бормоқ, юрмоқ (пиёда), бормоқ, юрмоқ (транспортда), сузмоқ (кемада)*) умумий маъноси бир томонга бўлмаган силжиш (жилиш) феъллари (*бормоқ, келмоқ, қатнамоқ*) билан қарама-қарши қўйилади.

Санааб ўтилган умумий семантик белгилар “ҳаракатнинг йўналганлиги / йўналмаганлиги” (юрмоқ, бормоқ, кетмоқ, келмоқ – қатнамоқ, қадам ташламоқ, югурмоқ, чопмоқ, қочмоқ, тез юрмоқ, тез ўтмоқ), «ҳаракат усули» (юрмоқ, учмоқ, сузмоқ)дан ташқари, қўшимча: «интенсивлик» (юрмоқ, бормоқ, битта-битта қадам ташлаб юрмоқ, оёғини судраб босмоқ, судралмоқ, айланиб юрмоқ, кезмоқ, югурмоқ, тез юрмоқ, тез ўтмоқ), «ҳаракат сифати» (секин юриб бормоқ, судралиб юрмоқ, зўрға қадам ташлаб бормоқ, тантанавор (викор билан, намойишкорона) юрмоқ) ҳаракетистикаларини ажратиб кўрсатишади, уларга яна кўпроқ хусусий семантик белгилар қўшилади; масалан, «ҳаракат сифати» белгисига ҳаракатнинг қийинлигини ифода килувчи компонентлар (судралиб (имиллаб) бормоқ (ёки келмоқ), секин юриб бормоқ, судралиб юрмоқ, зўрға қадам ташлаб бормоқ, судралмоқ, судралиб бормоқ), муҳимлик (викор (савлат) билан юрмоқ, керилиб юрмоқ, ғоз юриш қилмоқ, юрмоқ, қадам кўймоқ (босмоқ, ташламоқ), тантанавор (викор билан, намойишкорона) юрмоқ), енгиллик (сузмоқ, юзмоқ, сузиб (юзиб) юрмоқ, сирғанмоқ, сирпанмоқ, бир текис (силлик) ҳаракат қилмоқ), алоҳида ҳаракат тарзи (елдирмоқ, елмоқ, лўкиллаб чопмоқ, лўкилламоқ, сакрамоқ, ҳаккаламоқ, сакраб (ҳаккалаб) юрмоқ, ҳаккалак отмоқ, от чоптирмоқ, от чоптириб бормоқ), мақсадсизлик (тентирамоқ, санқимоқ, тентираб (санқиб, лақиллаб, бекор) юрмоқ, каловланмоқ, гандиракламоқ, каловланниб (гандираклаб) юрмоқ, лақиллаб (сандироқлаб) юрмоқ, у ёқдан бу ёққа бориб келмоқ, айланиб (сандироқлаб)



юрмоқ, кезмоқ, тентирамоқ, изғимоқ, дайдимоқ), шошма-шошарлик, шошқалоқлик (у ёқ-бу ёққа зир югуртироқ, танда қўймоқ, у ёқ-бу ёққа зир югурмоқ, у ёқ-бу ёққа тез бориб келмоқ, безовта бўлмоқ, ўзини у ёқ-бу ёққа ташламоқ, изтиробда югуриб-елмоқ, ўзини қаерга қўярини билмай югурмоқ, юрмоқ, ўзини отмоқ, отилмоқ, ташланмоқ, югурмоқ, бетартиб (питир-питир) ҳаракат қилмоқ, беҳаловат уринмоқ, югуриб-елмоқ, овора бўлмоқ, куйманмоқ), товушли ҳаракат (шалоп-шулуп қилиб юрмоқ, шалопплатмоқ, шапиллатмоқ, шалп-шулуп ёки тап-туп қилиб юрмоқ, оёқларни (товорнларни) бир-бирига уриб овоз чиқармоқ, оёқни судраб босмоқ, шап-шап овоз чиқариб юрмоқ, топ-топ (ёки гурс-гурс) қадам ташлаб юрмоқ); оёқ қўйишнинг алоҳида усули (оқсамоқ, оқсаб юрмоқ, оқсокланмoқ, чўлоқланмoқ, судралмоқ, каловланиб (оқсаб-тўқсаб) зўрга юрмоқ, оёқларни судраб (аранг, битта-битта) қадам босмоқ), бутун массаси билан ҳаракат (оқмoқ, қуламоқ, йикilmоқ, ағнамоқ, қулатмоқ, ағнатмоқ, ағнатмоқ, ётқизмоқ, йикитмоқ) киради (Пастухова 1983).

В. Г. Гак таъкидлаган эдики, француз тилидаги жуда кўп локал феъллар тўғри ўтимли ҳисобланадилар ва грамматик жиҳатдан ҳол сифатида эмас, балки воситасиз тўлдирувчи сифатида шаклланадилар. Ҳаракатнинг йўналишини ифодалайдиган француз тили феълига ҳаракат усулини ифода қиладиган рус тили феълининг йўналишни билдирувчи предлогли бирикмаси мос келади. Шундай қилиб, француз тили феъли функционал жиҳатдан русча предлогга ва олдидан қўшиладиган феълга tengdir:

quitter – от (-дан), из (-дан), с (билан):

Je la quittai (Mauriac) – Я ушел от него – Мен уни ташлаб кетдим.

Il fallait quitter Séville (Mauriac) – Необходимо уехать из Севильи – Севильядан жўнаб кетиши лозим.

visiter – в, к, по:

Было у него странное обыкновение –ходить по нашим квартирам (Чехов) – Il avait l’étrange habitude de visiter nos demeures. Унинг ғалати – квартиralаримиз бўйлаб юриши одати бор эди.

gagner – до, в, к:

Il nous faudrait regagner le hall (Maurois) – Нам нужно вернуться в зал. Биз залга қайтишишимиз лозим.

Je gagnai la porte (Mauriac) – Я подошел к двери. Мен эшикка яқинлашдим.

traverser – через (-дан, орқали):

Il traversèrent le pont (Courtade) – Они перешли через мост. Улар кўпридан ўтдилар.

Кўриб турибмизки, феъл томонидан ифодаланаётган вазиятларнинг турлари ҳаракат феълларини мазмунига кўра ҳажмли фреймли феълларга ва тор маънодаги локал феълларга ажратиб, уларни табакалаштиришга ёрдам беради.

Адабиётлар рўйхати

1. Кильдебекова, Абдюкова 2000
2. Пастухова 1983
23. Топоров 1996



РУС, ФРАНЦУЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА "ҲАРАКАТ" КОНЦЕПТИНИНГ УНИВЕРСАЛ ВА ИДЕОЭТНИК ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ

Умарова Обидахон ЎзМУ
shakhlo.shakhobiddinova.95@mail.ru

Аннотация: Ҳаракатнинг асосий компонентлари феълли сўзнинг мазмунини конкретлаштиришда муҳим роль ўйнайдиган уларнинг бирималарида берилади. Феълларнинг бирга қўшиб ишлатиш мумкинлиги энг улкан ҳаракат концептининг бир қатор параметрларга бўлинишини олдиндан белгилаб беради.

Калит сўзлар: Ҳаракат, компонентлар, ҳаракат феъллари, идеоэтник қисм.

Ҳаракат концепти асосий тил универсалиялари сафига киради. Бироқ ҳаракатни ташкил қилишнинг структураси тилларда фарқланади. Асосий фарқ умумий маънонинг француз ва ўзбек тилларида ифодаланишига таалуклидир.

Ҳаракатнинг асосий компонентлари феълли сўзнинг мазмунини конкретлаштиришда муҳим роль ўйнайдиган уларнинг бирималарида берилади. Феълларнинг бирга қўшиб ишлатиш мумкинлиги энг улкан ҳаракат концептининг бир қатор параметрларга бўлинишини олдиндан белгилаб беради, улар кўрсатилган феъллар билан берилади: французча *aller*, ўзбекча *юрмоқ, бормоқ*. Асосий параметрлар: **ҳаракат субъекти** – француз тилида *qui va, qui marche? qu'est-ce qui va? un homme, un piéton, un torrent des hommes, une voiture, un torrent des automobiles, un train;* ўзбек тилида – ким, нима боряпти? одамлар, пиёда, одамлар оқими, машина, машиналар оқими, поезд, **ҳаракат мухити**: – *aller par terre, par air (dans l'air), par eau – юрмоқ, бормоқ, ер бўйлаб, ҳавода, сувда силжимоқ.*

Француз ва ўзбек тилларида ҳаракат соҳасини ифодалаш характеристикасининг таҳлили маълум ўхшашилик ва фарқларни аниқлаш имконини беради. Ўхшашилик шундан иборатки, ҳаракатнинг изоҳловчи вазифаси сабабли барча уч тилда ҳаракат умумий тушунчаси *mouvement*, ҳаракат (юриш, бориш) отлари орқали ифодаланади.

Le mouvement de piéton, des automobiles, des autobus, des trams, de chemins de fer, un grand mouvement, un petit mouvement, un mouvement animé (vif), accéléré, intense, régulier, un trafic;

Le mouvement des hommes, du transport, des piétons, de la colonne, des autobus, des trains, le mouvement de la Terre, du Soleil, des planètes, des corps célestes;

Le marche (le mouvement) du train, de l'avion, du navire;

Le mouvement par la route, par la rue;

Le mouvement direct, circulaire, de route, une circulation;

Une vitesse d'un mouvement, une direction d'un mouvement, un règlement du trafic (ёки de la circulation), une sécurité routière.

Ўзбек тилида "ҳаракат" маъноси билан ҳаракат, юриши отлари амал қиласи: пиёдалар ҳаракати, трамвай ҳаракати, автобус ҳаракати, айланма ҳаракат; доимий ҳаракат, қарши ҳаракат, тўғри чизикли ҳаракат; автобуслар юриши, кемалар юриши, ҳаракат тезлиги, ҳаракат йўналиши; ҳаракатни тезлатиш, секинлатиш.

Шундай килиб, қиёсланаётган барча тилларда ҳаракатни характерлаш учун отларнинг қўлланилиши тил универсалияларига киради, шунга қарамасдан, ҳаракат умумий тушунчасини ифодалашда феълларда муҳим фарқлар кузатилади.

Ҳаракатнинг асосий характеристики умумий маънодаги феъл билан боғлиқ. Силжиш, жилиш концепти рус тилида двигаться – ҳаракатланмоқ, юрмоқ, ҳаракат қилмоқ; сурилмоқ, жилмоқ, қўзғалмоқ" феъли билан ифодаланиб, у барча соҳанинг ядрорий бўллаги ҳисобланади ва мураккаб бўлмаган семантик структурага эга бўлиб, ҳаракат феъллари гуруҳида идентификатор сифатида чиқади, чунки субъект ёки объектнинг фазода (маконда) умумий, нейтрал шаклда ҳаракат, силжиш, жилиш, жойини ўзгартириш тоғасини ифодалайди.

Аниқ ҳаракат феъллари ҳаракатнинг умумий тоғасини аниқлаштирадилар, умумий тушунчани ҳаракатнинг йўналиши, унинг намоён бўлишни, амалга ошиш усули ва ҳ.к. нуқтаи назаридан бўлиб-бўлиб юборадилар.

Француз ва ўзбек тилларида "ҳаракатланмоқ" умумий тушунчасини ифодаловчи маҳсус феъл мавжуд эмас. Турли соҳаларда ҳаракат тушунчасини бериш учун француз тилида *aller* ва ўзбек тилида *бормоқ, юрмоқ, келмоқ* феъллари ишлатилади. Қиёсланг:



1. aller où: par le bois, par le champ, par le bord; le long de la route, le long de la chaussée; entre les maisons; par la rue, par la route;

Қаердан бормоқ: ўрмон бўйлаб, дала бўйлаб, кирғоқ бўйлаб, йўл бўйлаб, шоссе бўйлаб, уйлар орасидан, кўча бўйлаб, йўл бўйлаб;

2 . aller où: à la gare, en ville, à l'école, sur la place;

Қаерга бормоқ: вокзалга, "шахарга, мактабга, майдонга;

3. aller d'où: de la place, de la ville, du village;

Қаердан келмоқ: майдондан, шаҳардан, қишлоқдан;

4. Aller avec une vitesse quelconque.

Aller comment: vite, légèrement, lentement, sans bruit, sans cesse.

Қандай тезлик билан бормоқ (юрмоқ).

Қандай юрмоқ: тез, енгил, оҳиста (секин), шовқинсиз, тўхтовсиз.

Ҳозирги француз тили луғати «Le petit Robert (dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française)» aller феълининг 8 та маъноси берилган, улар орасидан, хусусан, куйидагиларни ажратиб кўрсатиш мумкин:

Aller marque le mouvement, la locomotion d'un lieu vers un autre - aller ҳаракатни, бир жойдан бошқа жойга силжишни, кўчишни ифодалайди:

1. se déplacer – силжимоқ, суримоқ, жойидан қўзғалмоқ (у ёки бу усул билан): Allons à pied – Пиёда борамиз (= marcher). Il sait maintenant aller à bicyclette. – У энди велосипедда юришни билади. A cette heure-ci, on va plus vite en metro qu'en voiture. – Ҳозир метрода машинага қараганда тезроқ борилади. Vous allez comme le vent! – Сиз шамол каби учяпсиз (= courir, filer, gazer). Il se mit à aller et venir par la chambre. – У у ёқдан-бу ёққа бориб кела бошлади. Aller son chemin. – Ўз йўлидан бормоқ. Il allait à pas lents. – У имиллаб юрарди (оҳиста қадам билан).

2. avec le complément de but – мақсад тўлдирувчиси билан: je vais à mon travail, à la chasse, aux nouvelles – мен ишга, овга, янгиликларни билишга (янгиликлар ортидан) боряпман.

3. avec un sujet de chose, dans le même sens – жонсиз эга билан: aller йўналишни билдирувчи ўша конструкциялар билан: Une voiture qui va vite. – Тез юраётган машина (= rouler). L'autobus va jusqu'à la Porte Champerret. - Автобус Шампере дарвозаларигача боради. Le sentier va à la rivière. – Сўқмоқ дарёга олиб боради (= mener).

4. suivi d'un infinitif de but - aller инфинитивли конструкцияда, мақсадга интилишни ифодалайди: aller occuper sa place – ўз жойини эгаллагани бормоқ; aller demander des renseignements – маълумотлар олиш учун, суриштириб билиш учун бормоқ. Elle va voir sa soeur. – У синглисими кўриш учун боряпти (у синглисимикига боряпти).

Кўриб турибмизки, феъл томонидан ифодаланаётган вазиятларнинг турлари ҳаракат феълларини мазмунига кўра ҳажмли фреймли феълларга ва тор маънодаги локал феълларга ажратиб, уларни табақалаштиришга ёрдам беради.

Адабиётлар рўйхати

1. «Le petit Robert (dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française)»



РАЗВИТИЕ БИЛИНГВИЗМА УЧАЩИХСЯ ПОСРЕДСТВОМ МЕЖПРЕДМЕТНОЙ СВЯЗИ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ

Рахматуллаева Ирода Анваровна,
НавГПИ, учитель русского языка

Annotasiya. Maqolada O'zbekistonning o'rta maktablarida rus tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishning qiyinchiliklari muhokama qilinadi. Talabalarning nutqidagi xatolarning oldini olish usullari, ularning ona tillari asosida amalga oshirilishiga katta e'tibor qaratilgan.

o'bilingvizm, metodologik usullar, ta'lim darajasi, rivojlanish jarayoni, fikrlash, ob'ektlararo aloqa, bilingvismning shakllanishi, ta'lim munosabatlari o'zaro bog'liqlikli o'rganish.

Родной язык является важнейшим признаком нации и своеобразия национальной культуры. Родной язык в школе является самым главным предметом обучения и основой обучения всем дисциплинам. Вместе с тем отмечается, что для обмена информацией о жизни и культуре с представителями разных национальностей для развития межнациональных контактов необходимо знать другие языки. Поэтому так важно обеспечить в системе непрерывного Республики Узбекистан качественное владение как родным, так и русским и другими неродными языками, необходимо усилить преподавание языков в школе, особое внимание уделять образованию и обучению способных к изучению языков учащихся. Знание русского языка является одной из составляющих ключевых компетенций специалистов любого профиля.

Мнение психологов и социолингвистов по этой проблеме сводится к тому, что знание любого неродного языка помогает личности более глубоко понять родной язык, который остается незыблемым фундаментом овладения любым другим языком. Личность, не владеющая, кроме родного, другим языком, остается замкнутой исключительно в одной культуре. Актуальны строки выдающегося узбекского поэта и государственного деятеля Алишера Навои: «Я знать хотел бы очень много /–О, светоч грёз моих, во имя созиданья / Хотел бы знать я мысли всех людей /И языки всего мирозданья».

Взаимосвязь обучения родному (узбекскому) и неродному (русскому) языкам способствует развитию национально-русского двуязычия. Термином, обозначающим знание двух языков, является билингвизм. Различают естественный и искусственный билингвизм, а также субординативный и координативный билингвизм. Естественный билингвизм - билингвизм, при котором знание двух языков приобретается при постоянном пребывании в различных языковых средах. Координативный билингвизм - двуязычие, при котором нет доминирующего языка. При этом билингв думает на том языке, на котором говорит. Субординативный билингвизм - билингвизм, при котором наличествует доминантный язык (язык мышления). Механизм билингвизма заключается в умении легко переходить с одного языка на другой. Он основывается на сформированном навыке переключения, т.е. умении совершать операции по переходу с одного языка на другой для перевода единиц речи.

Изучение характера ошибок учащихся позволило сделать вывод: в процессе чтения дети чаще всего испытывают трудности в произношении тех слов, смысл которых им не понятен. Поэтому лексическое значение каждого нового слова необходимо выяснить, поставить ударение, произнести по слогам. Большинство детей используют фрагментарный пересказ, пропускают существенные моменты, искажают смысл. Примеры тренировочных упражнений, направленных на преодоление трудностей в усвоении русского языка и профилактики дисграфии у билингвов:

1. Контролировать правильное написание слов. Ученик запоминает напечатанные слова, через минуту ученик должен восстановить запись этих слов. После выполнения всего задания происходит сверка и подсчет ошибок. Ученик должен правильно списать слова и потренироваться дома в их правописании. Варианты: 1) в слово вставляется изучаемая буква; 2) восстанавливается всё слово целиком.

Особенностью обучения русскому языку учащихся с использованием билингвального метода является то, что при обучении русскому языку родной используется в необходимой степени. Необходимость использования родного языка определяет сам учитель, т.к. только он замечает степень овладения или же усвоения учащимися второго языка. И от использо-



вания учителем правильных методов в данный момент может зависеть уровень овладения учащимися вторым языком. Такой подход развивает усвоение русского языка и углубляет знание родного языка. При таком подходе обучения есть возможность повторять и закреплять межпредметную связь. На уроке физкультуры, математики, технологии, изобразительного искусства, музыки получаемый детьми запас русских слов и фраз закрепляется. Проведение интегрированных уроков играет положительную роль.

Таким образом, педагог, работающий в двуязычной среде, должен обладать навыками межличностного общения с учетом особенностей профессии и возрастного подхода к обучению детей-билингвов, уметь общаться и организовывать толерантное общение, необходимое для формирования доверительного педагогического стиля в обучении и воспитании; иметь знания о каждой из взаимодействующих в обучении культур, уметь согласовывать свои действия с другими педагогами и родителями.

Использованная литература:

1. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан №124 «Государственный образовательный стандарт системы непрерывного образования. Требования к уровню подготовленности выпускников всех ступеней образования по иностранным языкам».— Ташкент, 2013.
2. Верещагин Е.М. Психологическая и методическая характеристика двуязычия (билингвизма).- М., 1969.
3. Цейтлин, С. Н. Грамматические ошибки в освоении русского языка как первого и как второго / С. Н. Цейтлин // Вопросы психолингвистики. – М., 2009. - № 9.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(7-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000